



ISLOM BANKLARI FAOLIYATIGA OID ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI

Jiyanov O'ktam

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ORCID: 0000-0001-7711-6659

uktam.jiyanov87@gmail.com

Eraliyeva Nigora

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ORCID: 0009-0007-0139-6456

eraliyevanigora1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada islom bank faoliyati, uni iqtisodiyot o'sishiga ta'siri, an'anaviy banklar bilan farqlari, ishlash prinsiplariga oid adabiyotlar o'rganilib, ularning natijalari bayon etilgan. O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda islom banklarini tashkil etish bo'yicha muammo va yechimlar berildi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom banki, shariat tamoyillar, risk, moliyaviy maxsulotlar, an'anaviy bank, samaradorlik, sherikchilik, kapital.

АНАЛИЗ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСЛАМСКИХ БАНКОВ

Жиянов Уктам

Международная исламская академия Узбекистана

Эралиева Нигора

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В статье рассмотрена литература по исламскому банкингу, его влияние на экономический рост, его отличия от традиционных банков, а также принципы работы, представлены их результаты. Приведены проблемы и пути решения создания исламских банков в развитии национальной экономики Узбекистана.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, принципы шариата, риск, финансовые продукты, традиционный банкинг, эффективность, партнерство, капитал.

ANALYSIS OF SCIENTIFIC LITERATURE ON THE ACTIVITY OF ISLAMIC BANKS

Jiyanov Uktam

International Islamic Academy of Uzbekistan

Eraliyeva Nigora

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. The article examines the literature on Islamic banking, its impact on economic growth, its differences with traditional banks, and the principles of operation, and their results are presented. Problems and solutions for the establishment of Islamic banks in the development of the national economy of Uzbekistan were given.

Keywords: islamic finance, Islamic banking, shariah principles, risk, financial products, traditional banking, efficiency, partnership, capital.

Kirish.

Xalqaro maydonda an'anaviy moliya modeliga muqobil ravishda kirib kelgan islom moliyasi jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu rivojlanish ko'rsatkichiga dunyoda islom diniga e'tiqod qiluvchilarning soni 2 mlrd dan oshgani bir turtki bo'lsa, ikkinchi tomondan islom moliya instrumentlari insonlar ehtiyojini qondira olayotgani bir yana bir sabab bo'lmoqda. 2007-2008 yilda yuz bergan Jahon iqtisodiy moliyaviy inqirozi davrida an'anaviy moliya tizimidan farqli ravishda islom moliya tizimida 10-15% o'sish surati kuzatildi (Dhankar, 2015). Islom moliyasi tizimida katta segmentni islom banklari egallab, yildan yilga ularning soni ortib bormoqda. 2019-yil holatiga ko'ra Islom moliya aktivlari umumiy qiymati \$2,961 mlrdni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich \$3,958 mlrdga yetdi va umumiy 33% ga o'sishga erishdi (Mohamed, Ahmed, 2022).

Hozirgi davrgacha o'rganilgan tadqiqotlar nazariy jihatdan islom banklari dolzarbligini o'rganib chiqdi va islom moliyasi turli xil iqtisodiy sharoitda barqarorlik va o'sish ko'rsatkichlariga xos ekanligini qayd etdi. Biroq, sanoqli tadqiqotlarga islom banklari va ulardagi moliyaviy barqarorlik munosabatlarini empirik ravishda o'rganib chiqqan.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda islom modelidan foydalanish, xususan, islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish iqtisodiyotining turli bo'g'inlarida ijobiy o'zgarishlar olib kelsa, islom bank xizmatlaridan foydalanish aholi turmush tarzini yanada yaxshilash, ularda adolat va tenglik hissini shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Islom banklari faoliyatida puldan unumli tarzda foydalanish, shariat tamoyillariga zid bo'lmagan savdo va aktivlarga investitsiyalar qilish orqali boylik yaratiladi. Islom moliyasining asosiy vositalari savdoga asoslangan. Savdo bilan bog'liq har qanday daromad tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Islomiy banklari islom moliya tarmog'ining katta qismi tashkil etib, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan ushbu tarmog' ustida ilmiy izlanishlar soni yildan-yilga tobora ortib bormoqda. Iqbol va Molyneux (2005) islom banki yaxshi g'oyaga ega bo'lgan har qanday kishini moliyalash orqali innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlaydi, degan fikrda. Agar kichik va o'rta tadbirkor yaxshi loyihaga ega bo'lsa, u moliyalashtirish imkoniyatiga ega va uni katta xavf qo'rquvi ushlab turmaydi, bank tizimi riskni yaxshiroq taqsimlashga olib keladi, chunki risk tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Albatta, iqtisodiy rivojlanish ichki va tashqi moliyaviy resurslarni samarali safarbar qilishni talab qiladi va har qanday qoldirilgan resurs amalga oshirilmagan imkoniyatlardan dalolat beradi.

Goaied va Sassi (2020) fikriga ko'ra, islom banklari moliyaviy tizim va iqtisodiyotga an'anaviy banklar kabi hissa qo'shish bilan birgalikda afzalliklarni taqdim etadi.

Nasir Ababulgu Abasimel (2023) islom banklari faoliyati bo'yicha dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlardan: Web of Science, AGRIS, Research Gate, Science Direct, Islomiy jurnallar, Islom nashriyoti, Springer va turli jurnal va kutubxonalar kabi turli elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalangan. Islom bankchiligida mavjud bo'lgan ikkinchi darajali ma'lumotlar, asoslar, tushunchalar, xususiyatlar, moliyaviy tizimlar, iqtisod, foizsiz va ish uchun tegishli bo'lgan boshqa ma'lumotlardan ham foydalanilgan. Shuningdek, islom banki faoliyati, mahsulotlari, tushunchalari, xususiyatlari, iqtisodiyotga qo'shgan hissasi va juda muhim bo'lgan tegishli ma'lumotlarga oid mavjud va batafsil ma'lumotlar tanqidiy ko'rib chiqan.

Statistik tekshiruvlar va gipoteziyalar orqali Mifrahi va Tohirin (2020) islom banklarining investitsiya va iste'mol xarajatlariga ta'sir etishini va Islom banklari aktivlarining bozor ulushi iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, shuning uchun islom banki moliya tizimida qanchalik ustun bo'lsa, iqtisodiy o'sishga shunchalik yaxshi ta'sir qilishini isbotlagan.

Tabash va Shankar (2014) 1990-2008 yillar davomida Qatarda islomiy moliya rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda islom banklari tomonidan

xususiyl sektorga taqdim etilgan mablag'lar va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlagan. Bundan tashqari, islom bank ishi yalpi asosiy kapital shakllanishiga va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga hissa qo'shishi ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur izlanishimiz mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish va tahlil qilishga yo'naltirilganligi uchun bibliografik tadqiqot usulidan foydalanganmiz. Bunda ScienceDirect, Google Scholar bazalaridan tegishli kalit so'zlar bilan qidirish orqali 48 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 21 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Nasir Ababulgu Abasimel (2023) o'zining "Islom bank ishi va iqtisodiyoti" nomli maqolasida islom banklari va an'anaviy bank faoliyatidagi farqlarni, islom banklari taklif etuvchi moliyaviy mahsulotlar(murobah, ijara, mudoraba va boshqa)ni ko'rib chiqqan. Islom bank mahsulotlari moliyaviy faoliyat samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ma'naviy xavflarni kamaytirish va qashshoqlikni bartaraf etishda muhim ro'l o'ynashini aytib o'tgan. Islom bank ishi butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan iqtisodiyot va talab bilan rivojlanib, iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shishini aytib o'tgan. Xulosa o'rnida butun dunyo mamlakatlaridagi barcha manfaatdor tomonlar jamiyatni barqaror va real takomillashtirishga muhtoj bo'lsa, islom banki sohasiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini takidlab o'tgan.

Fajra Octrina, Alia Gantina Siti Mariam (2021) o'zlarining "Indoneziyadagi Islom banking samaradorligi: stokastik chegara tahlili" nomli maqolasida Indoneziyadagi islom banking samaradorlik darajasini, shuningdek, uning samaradorlik darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni tahlilini o'rganib chiqishgan. Samaradorlik darajasini tahlil qilish, samaradorlikka qanday omillar ta'sir qilishini aniqlash uchun Frontier 4.1 va eviews 9 ko'rinishidagi sinov vositasi bilan chiziqli dasturlash stokastik chegara tahlili (SFA) yordamida amalga oshirgan. Samaradorlik testini mijozlar orqali amalga oshiradi, ta'sir testida esa bank hajmi, bank moliyaviy koeffitsienti va makroiqtisodiy o'zgaruvchini o'z ichiga olgan bankga xos o'zgaruvchilarni qo'llaydi. Natija shuni ko'rsatadiki, Indonesiyada kam sonli banklarga to'liq samarali faoliyat olib borgan va ularning samaradorligiga bank hajmi, kapitalning etarlilik koeffitsienti (CAR), va moliyalashtirishning depozitlarga nisbati (FDR) kabi omillar ta'sir ko'rsatishini isbotlab berilgan.

"Tartib, maqasid shariat va institutsional parametr islom banklari samaraligini yaxshilay oladimi?" nomi ostidagi maqola mualliflari Wan Hakimah Wan Ibrahim va Abdul Ghafar Ismail (2020) o'z ishlarida islom banklarini tartibga soluvchi parametrlar va uning samaradorligi o'rtasidagi bog'lanishni o'rganganlar. Xususan, bank samaradorligi hisoblanada bank reglamenti, institutsional o'zgaruvchilar, iqtisodiy erkinlik, va shariat qonuni kabi parametrlari qanday qilib ta'sir qilishini ko'rib chiqqan. Ularni yaxshiroq tartibga solish yuqori samaradorlikni keltirib chiqarishini, shariat qonuni parametri islom banklari o'rtasida samaraliroq bo'lishiga yordam berishini isbotlagan. Ma'lumotlarni konvertatsiya qilish tahlili (DEA) samaradorlikni o'lchash uchun, panel ma'lumotlar usuli esa ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatilgan. Natijada bank samaradorligi va islom banklari faoliyatiga nisbatan ko'proq cheklovlar o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Tartibga solish sifati bank samaradorligiga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy erkinlikning manfiy koeffitsienti islom banklarining bank sohasiga kirish va oson litsenziya olish, mahsulot va xizmatlar yaratish, biznesni yopish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bularning barchasi bank samaradorligini pasaytiradi. Umuman olganda, ularning topilmalari tartibga solish parametrlari islom banklarining tavakkalchilik darajasi va hajmiga moslashtirilishi kerakligi haqidagi argumentni tasdiqlaydi.

Serkan Eti, Hakan Kalkavan va boshqalar (2020) o'zlarining "Barqaror iqtisodiy rivojlanishda islom banking rolini bashorat qilish: ARIMA modeli bilan Turkiya uchun tahlil"

nomi ostida yozilgan maqolasi Turkiyadagi islom bankining kelajagini bashorat qilishga qaratilgan. Turkiyada faoliyat yuritayotgan uch xil islomiy bank ko'rib chiqilgan. Shu doirada bank sektori uchun muhim bo'lgan olti xil o'zgaruvchi aniqlangan. Ushbu o'zgaruvchilarning 2010-2018 yillardagi ma'lumotlari ARIMA usuli bilan tahlil qilindi va oltita turli modellar yaratildi. Natijada islom banki faoliyatining kelgusida rivojlanishi, uning rentabelligi oshishiga ta'sir qilish aniqlanib, muammoli kreditlar nisbati oshishi, kapital esa kamayishini prognozlashgan. Shuning uchun islom banklari bu o'sish jarayonida ehtiyotkorroq bo'lishlari kerakligi aytib o'tilgan. Shu nuqtai nazardan, kredit beriladigan mijozlarning ishonchligini samarali tahlil qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi va bu holat mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi xulosa qilingan.

Walid Mensi, Shawkat Hammoudeh, Aviral Kumar Tiwari va boshqalar (2020) o'zlarining "Islom banki rivojlanishi va asosiy makroiqtisodiy o'zgaruvchilarning islom mamlakatlari uchun iqtisodiy o'sishga ta'siri: panel silliq o'tish modellaridan dalillar" nomli maqolasida islom mamlakatlarida islom banki rivojlanishi, asosiy makroiqtisodiy o'zgaruvchilar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi noxiziqli bog'liqlikni o'rgangan. Panelning silliq o'tish modelidan foydalangan holda, natijalar islom bankining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy chiziqsiz munosabatni ko'rsatadi. Bundan tashqari, makroiqtisodiy o'zgaruvchilar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlar assimetrik va rejimga bog'liq. Bundan tashqari, dinamik panelli kvant modelidan foydalanib, islom bankining o'zgaruvchilari kvantlar bo'yicha iqtisodiy o'sishga olib kelishini ko'rsatganlar. Aniqrog'i, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, neft qazib olish va inflyatsiya normal moliyaviy rivojlanish holatida iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, davlat iste'moli, iqtisodiy o'sishning bir sekinligi, savdo shartlari va moliyaviy rivojlanish buning uchun iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Inson kapitali indeksi, ta'lim va qonun ustuvorligi, amaldagi rejimdan qat'i nazar, ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatishi va alohida neft import qiluvchi va eksport qiluvchi iqtisodlar bo'yicha natijalar odatda islom banki rivojlanishining o'zgaruvchilari bo'yicha birlashtirilgan tanlovga mos kelishi aniqlangan.

"Iqtisodiy o'sishda islom bankining o'rni" nomli maqolada Katherine Johnson (2013) islom banklarining iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi kuchini empirik tahlil qilish orqali adabiyotga qo'shimcha kiritishga intilgan. O'tgan tadqiqotlarni tasdiqlagan holda, aholi orasida musulmonlarning tarqalishi islom banklarining tarqalishining eng muhim omili ekanligi aniqlangan. 2SLS regressiyasida ushbu ekzogen vositadan foydalanish natijalar islom banklari iqtisodiy o'sish bilan sezilarli darajada bog'liq emasligini ko'rsatgan. Eng muhimi, islom banki vositasi beta-konvergenssiyaning kuchiga ta'sir qilishi aniqlangan. Asosiy Solovian spetsifikatsiyalari konvergenssiya sodir bo'lishini ko'rsatgan; aholi jon boshiga dastlabki YaIM yuqori bo'lgan mamlakatlar sekinroq o'sishi aniqlangan. Islom bankining intensivligini hisobga olgandan so'ng, bu ta'sir statistik jihatdan kamroq ahamiyatli bo'lib qoladi, bu esa konvergenssiyaning ba'zi ta'siri islom bankini qabul qilishga moyillik orqali ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islom banklari uchun buxgalteriya hisobi qonuniy kelib chiqishning hal qiluvchi kuchiga ta'sir qilmaydi. Nihoyat, islom bank ishi va moliyaviy chuqurlashuvning o'zaro bog'liqligi ko'p jihatdan qonuniy kelib chiqishiga bog'liq bo'lib, Britaniya huquqiy kelib chiqishi bo'lgan mamlakatlar uchun salbiy va frantsuz huquqiy kelib chiqishi bo'lgan mamlakatlar uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hasanul Banna va Rabiul Alam (2020) o'zlarining "Islom banki institutlari va ularning Iordaniyaning iqtisodiy rivojlanishidagi roli" nomli maqolada 2015-2020 yillar davomida daromadlar, ishsizlik, inflyatsiya, investitsiyalar, shuningdek, yalpi ichki mahsulot bo'yicha bir nechta iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'lchaganlar, bu erda ta'sirlarni o'lchash uchun regressiya yondashuvi qo'llanilgan. Natijalar: Tadqiqot Iordaniya islom banklarida moliyalashtirishning yalpi ichki mahsulot va inflyatsiyaga statistik jihatdan ahamiyatli ta'siri yo'qligini, islom banklarida moliyalashtirishning davlat tijorat sektorlari, uy-joy va qurilishga statistik ta'sirini ko'rsatgan. Shuningdek, Iordaniya islom banklarida moliyalashtirishning katta qismi qurilish

va uy-joy sektoriga, keyin esa islom banki moliyasining istalgan iqtisodiy maqsadlariga erishish uchun davlat xizmatlari sektoriga yo'naltirilgani aytib o'tilgan. Banklarda tijorat yoki islomiy moliyalashtirish jamiyatga ko'rsatiladigan eng muhim xizmatlardan biri hisoblangan banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyalashtirishning ahamiyati amaliy ko'rinishini tahlil qilib, iqtisodiy rivojlanish bo'yicha Iordaniya Islom banklari uchun tavsiyalar bergan. U moliyaviy inklyuziya va uning YaIM o'sishi bilan o'zaro ta'sirining islom bankiga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun ma'lumotlar konvertatsiyasini tahlil qilib, Simar-Uilsonning ikki tomonlama yuklash regressiya usullarini qo'llash orqali 2011 yildan 2017 yilgacha bo'lgan davrda 32 mamlakatning 153 ta islom banklarining samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganib chiqqan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik mamlakatlarda islom banklarining samaradorlik tendentsiyalari global moliyaviy inqirozdan keyin bir-biriga mos kelmagan; bu bank sektori o'sha retsessiya oqibatlarini hamon o'z zimmasiga olganidan dalolat beradi. Biroq, Bangladesh, Malayziya, Mavrikiya, Qatar, Tunis va Sudandagi islom banklari samarali faoliyat ko'rsatgan va urushdan jabr ko'rgan mamlakatlar bo'lishiga qaramay, Iroq va Falastindagi islom banklarida ham, o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Islom banklari samaradorligini oshirish uchun moliyaviy inklyuzivlik (FI) asosiy rol o'ynashi va FI va YaIM o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'siri FI barqaror rivojlanishda muhim rol o'ynashidan dalolat bergan. FI bo'yicha tadqiqotlar davom etayotgan jarayon bo'lganligi sababli, ushbu maqola Islom banklarining so'nggi ma'lumotlaridan foydalanish orqali samaradorlikni tahlil qilib mavzuga tegishli mavjud adabiyot va metodologiyaga hissa qo'shgan.

Sutan Emir Hidayat, Muhammad Rizky Prima Sakti va boshqalar (2021) "Islom va an'anaviy banklar faoliyatida samaradorlik va moliyaviy ko'rsatkichlar" mavzusida yozilgan maqolada an'anaviy va islom banklarining o'z biznes modellarida tavakkalchilik, samaradorlik va moliyaviy ko'rsatkichlarni qanday taqqoslashini tanqidiy baholash, an'anaviy va islom banklari o'rtasida tavakkalchilik va samaradorlik shakllari qanday farqlanishini o'rganish va an'anaviy banklarning rentabelligini tanqidiy baholash orqali o'rganilgan. Tadqiqot 2011-2018 yillar davomida Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi mintaqasida faoliyat yurituvchi 12 ta islom banklari va 34 ta an'anaviy banklarni o'rganish orqali bir o'zgaruvchan va ko'p o'lchovli statistik usullardan foydalanib amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islom va an'anaviy banklar samaradorlik, tavakkalchilik va rentabellik darajasida emas, balki tavakkalchilik va samaradorlik banklarning moliyaviy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishida farqlanadi. Islom banklari kredit tavakkalchiligining salbiy ta'siridan kamroq ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, bu islomiy moliyalashtirishning risklarni taqsimlash xususiyatiga mos keladi. Biroq, natijalar faqat aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) uchun amal qiladi, shu bilan birga sof foiz marjasiga kredit riski salbiy ta'sir ko'rsatishi kuzatigan. Daromad samaradorligining pastligi islom banklarining ROA va ROE ko'rsatkichlarini ham oshiradi, bu esa shar'iy qoidalarga rioya qilish tufayli foizsiz daromadlarning katta qismi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi aniqlanga.

Tuan Azma Fatiema, Hafiza Aishah Hashim va boshqalar (2020). "Malayziyadagi moliya institutlari xususan islom bank faoliyatida axloqiy qadriyatlar" nomli maqolada Malayziyadagi bank sektori kontekstida axloqiy qadriyatlar va samaradorlik o'rtasidagi munosabatlarni o'rganilgan. Xayriya modeliga asoslanib, ushbu tadqiqot zakot va xayriya ishlarini olib borayotgan firmalar axloqiy firmalar ekanligini ta'kidlaydi. Zakotni oshkor qilish indeksi (ZDI) va xayriya oshkor qilish indeksi (CDI) axloqiy qadriyatlarni o'lchash uchun tuzilgan. Ushbu tadqiqot axloqiy qadriyatlar bank faoliyati bilan ijobiy bog'liqligini taxmin qiladi. Axloqiy qadriyatlar (masalan, CDI va ZDI) va moliyaviy ko'rsatkichlar (ya'ni, aktivlar rentabelligi) 50 ta bankning besh yillik (2010-2014) yillik hisobotlarida berilgan ma'lumotlardan to'plangan. Zakotni oshkor qilish va bank faoliyati o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zakotning oshkor etilishi yuqoriroq bank faoliyati bilan bog'liq. Biroq, xayriya ma'lumotlari va bank faoliyati o'rtasida hech qanday bog'liqlik topilmagan. Ushbu tadqiqotda foydalanilgan indeksning cheklanishini hisobga olgan holda, korporativ boshqaruv,

barqarorlik, mahsulotlar va atrof-muhit kabi boshqa o'lchovlar kelgusi tadqiqotlarda axloqiy qadriyatlarini o'lchash uchun indeksni ishlab chiqishda ko'rib chiqilishi mumkin. Malayziya kompaniyalarining o'ziga xos jihatlarini tavsiflovchi zakot oshkoralarigining rolini o'rganish orqali axloqiy qadriyatlar va ishlash o'rtasidagi munosabatlarga qo'shimcha tushuntirish berilgan

Aisyah Abdul-Rahman va Zaleha Yazid (2015) o'zlaring "Islom banki operatsion risklarni boshqarish asoslarini ishlab chiqish: "Odam xavfi" Inson resurslarini o'rganish operatsion xavfning determinantlarini tushunishda hal qiluvchi mavzusi deb olgan. Operatsion tavakkalchilikning turli manbalarini hisobga olgan holda, xodimlarning faoliyati natijasidagi yo'qotishlar asosiy sabab bo'lib tuyuldi, chunki xodimlar kiruvchi hodisalar jarayonlari va tizimlarini boshqaradigan asosiy ishtirokchilardir deb ta'riflagan. U o'zining tadqiqotida xodimlarning ishlash atributlarining operatsion risklarni boshqarishga ta'sirini o'rganib chiqdi, bunda "odam xavfi"ga e'tibor qaratdi. Tadqiqot Malayziyadagi 7 ta islom banklaridan 14 respondent bilan yuzma-yuz va telefon suhbatlari orqali sifatli yondashuvdan foydalangan holda o'tkazgan. Uning dastlabki ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, o'qitish, ta'lim, tajriba va kompensatsiya "odamlar xavfi" ni yaxshiroq boshqarishga olib keladi. Demak, "odamlar tavakkalchiligi"ga ta'sir etuvchi omillarni aniq tushunish inson resurslarini boshqarishda samarali va muvaffaqiyatli strategiyani ta'minlashga yordam beradi, ayniqsa islom banki institutlari uchun operatsion risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqishda.

Pejman Abedifar, Philip Molyneux va Amine Tarazi (2013) "Islom bankchiligidagi xavf" nomli maqolasida 1999-2009 yillar oralig'ida 24 ta davlatdan 553 ta an'anaviy va islomiy banklar namunasi asosida islom tijorat banklarining kredit tavakkalchiligi va barqarorlik xususiyatlarini o'rganishga harakat qilgan. Bu tadqiqot, shuningdek, islom banklari o'z mijozlarigadan shariatga mos keladigan xizmatlarni taklif qilishlari uchun qo'shimcha to'lov talab qilishlarini ham o'rgangan. Turli omillarni nazorat qilganimizdan so'ng, ular islom banklarining an'anaviy banklarga qaraganda kamroq kredit xavfi borligini aniqlashgan va bu, ayniqsa, yuqori darajada ta'minlangan kichik banklar yoki asosan musulmon mamlakatlarda (musulmonlar aholisining 90% musulmonlardan ko'p) faoliyat yuritadigan banklarga tegishli ekanini aytib o'tishgan. To'lovga layoqatsizlik xavfi nuqtai nazaridan kichik islom banklari ham an'anaviy banklarga qaraganda ko'proq barqarorlikni namoyon qilshii, chunki ular ko'proq kapitallashgan; ammo, katta islomiy va an'anaviy o'rtasida sezilarli farq yo'q ekani kuzatilgan. Islom banklarining kredit sifati, foiz daromadlari va foizli xarajatlari an'anaviy banklarga nisbatan ichki foiz stavkalariga nisbatan kam sezgir; biroq, islom banklarining to'lov qobiliyati pozitsiyasining foiz stavkalariga nisbatan sezgirligi ularning an'anaviy banklarinikidan sezilarli darajada farq qilmasligini aniqlashgan. Islom banklari o'z mijozlaridan shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni taklif qilishlari uchun ijara haqi oladilar. Islom banklari o'zlarining an'anaviy banklarining tavakkalchilik va barqarorlik xususiyatlarini taqlid qilmayotgani siyosatchilarga (ikki turdagi banklar uchun boshqa qonunchilik bo'lishi kerakmi yoki yo'qligi nuqtai nazaridan), tartibga soluvchilarga (agar ular boshqacha tartibga solinishi kerak) ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Nurhafiza Abdul Kader Malim (2020) "Osiyo mamlakatlaridagi Islom va an'anaviy banklarda rentabellik ko'rsatkichi" mavzusidagi maqolasida ikkilamchi bank tizimidagi operatsiyalarning har xil xarakterini hisobga olgan holda, banklarga xos, makroiqtisodiy va institutsional omillar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishtirib o'tilgan. Kuzatib bo'lmaydigan heterojenlik va endogenlik muammolari uchun doimiy kesma ma'lumotlarini va nazoratni qo'lga kiritish uchun GMM-dan foydalanib, oldingi tadqiqotlarga nisbatan boshqacha metodologiyadan foydalanilgan. Islom va an'anaviy banklar rentabellikni oshirishda boshqaruv xarajatlari samaradorligini kuchaytirishi zarurligi aniqlangan. Ikkinchidan, an'anaviy banklarning rentabelligini oshirish uchun kredit tavakkalchiligini boshqarishning yaxshi amaliyotlari muhim ahamiyatga ega ekanligi va davlat aralashuvi ikkala bank tizimi o'rtasidagi raqobatni va keyinchalik daromadlilikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashi ko'rsatilgan.

Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, hozirgi siyosat va huquqiy tizimlarda islom banklari asosan salbiy ta'sir ko'rsatadi va an'anaviy banklar yuqori raqobatdosh ustunlikka ega bo'lganligi sababli ko'proq moliyaviy foyda olishga intiladi va ko'proq bank mahsulotlaridan foydalanish, bu esa banklarning rentabelligini oshirishga olib keladi. Har ikkala bank tizimi uchun ham institutlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mijozlarga sifatli moliyaviy xizmatlarni taklif qilish uchun o'z bank mahsulotlari va moliyalashtirish portfellarini diversifikatsiya qilishni davom ettirish juda muhim ekanligi xulosa qilingan.

Taner Sekmen (2021) o'zining "Dual bank tizimida islom banki va iqtisodiy o'sish" nomli maqolasida islom banking Turkiyadagi iqtisodiy o'sishga ta'sirini an'anaviy bankchilik bilan solishtirish orqali aniqlashni maqsad qilib, 2005-2018-yillarning 4-choragigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi choraklik vaqt seriyasi va Pesaran, Shin va Smit (2001) tomonidan ishlab chiqilgan avtoregressiv taqsimlangan kechikish modelini (ARDL) qo'llagan. ARDL modeli bo'yicha hisoblangan uzoq muddatli koeffitsientlarga ko'ra, YalMning an'anaviy bank krediti va islom bank kreditiga nisbatan egiluvchanligi mos ravishda 0,106 % va 0,016 % ga teng bo'lgan. Modelning hisob-kitoblari an'anaviy banklarning Turkiyadagi iqtisodiy o'sishga Islom banklariga qaraganda ko'proq hissa qo'shishini tasdiqlagan. Xulosa o'rnida ko'proq islomiy moliyaviy vositalarni ishlab chiqish va rag'batlantirish islomiy moliya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashi va moliya tizimidagi islom moliyasining ulushini oshirishi mumkinligini takidlab o'tgan.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini o'rgan holda shuni ham aytish mumkinki, islom banklari risk taqsimotida an'anaviy banklarga qaragan ancha samarali faoliyat yuritadi. Bu esa innovatsion loyiha egalarini islom banklari orqali moliyalashtirishga undaydi. O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda ham islom banklarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasini, jumladan yaqin sharq mamlakatlari tajribalarini o'rgangan holda, O'zbekistonda ham dualistik bank tizimiga o'tish vaqti keldi deb hisoblayman. Bu o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlanishiga o'zini tasirini o'tkazdi. Yuqorida adabiyotlar tahlili mobaynida Malayziya bank tizimi samaradorligi baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida islom banklari faoliyatida ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilgan. O'zbekistonda ham islom banklarini tashkil etishda Malayziya modelidan foydalanishni taklif qilaman.

Shu bilan birgalikda e'tiqodi bo'yicha an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmayotgan musulmonlar uchun ham islom banklarini tashkil etish aholi qo'lida turgan bo'sh mablag'larni jalb qilish uchun sharoit yaratadi. Ijtimoiy jihatdan islom moliya mahsulotlaridan foydalanish aholi turmush tarzida adolat, sherikchilik, halol mahsulotlar bilan savdo qilish kabi ijobiy jihatlarni shakllantiradi. Avvalo, O'zbekistonda Islom banklarini tashkil etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklar bartaf etilishi lozimdir. Islom bank faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar yaratish, malakali kadrlar tayyorlash va albatta aholini islom moliyasi bo'yicha savodxonligini oshirmog'imiz lozim.

Islom banklari va ularni iqtisodiyot rivojlanishidagi roli bo'yicha ilmiy adabiyotlar va bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar qo'llanilayotgan islom bank tizimida ham taklif etilayotgan yangi bank mahsulotlari ortib borishi kelgusida amalga oshirish lozim bo'lgan ilmiy izlanishlarni yanada ko'paytirish zaruratini borligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar / Jumezamypa / Reference:

Abasimel N.A. (2023) *Islamic Banking and Economics: Concepts and Instruments, Features, Advantages, Differences from Conventional Banks, and Contributions to Economic Growth*. *Journal of the Knowledge Economy* 14:1923–1950 <https://doi.org/10.1007/s13132-022-00940-z>.

Aisyah Abdul-Rahman Zaleha Yazid (2015) "Developing a Framework of Islamic Bank Operational Risk Management: 'People Risk'". *Jurnal Pengurusan* 44 129 – 139.

- Fajra O., Alia Gantina S. (2021) *Islamic Bank Efficiency in Indonesia: Stochastic Frontier Analysis*. *Journal of Asian Finance, Economics and Business* Vol 8 No 1 751–758.
- Goaied, M., & Sassi, S. (2020). "Financial development and economic growth in the MENA region: What about Islamic banking development". *JEL Classification, E44(O16), C33*.
- Hasanul Banna. Md Rabiul Alam (2020). "Islamic banking efficiency and inclusive sustainable growth: the role of financial inclusion" *Journal of Islamic Monetary Economics and Finance, Vol. 6, No.1, pp. 213-242 p-ISSN: 2460-6146, e-ISSN: 2460-6618*.
- Iqbal, M., & Molyneux, P. (2005). "Thirty years of Islamic banking", 27.
- Johnson, Katherine, (2013) "The Role of Islamic Banking in Economic Growth". *CMC Senior Theses. Paper 642*. http://scholarship.claremont.edu/cmc_theses/642.
- Mifrahi, M. N., & Tohirin, A. (2020). How does Islamic banking support economic growth? *Jurnal Ekonomi dan Keuangan Islam*. ISSN: 2089–6239 (P); 2549–0648 (E), 9(1), 72–91, <https://doi.org/10.22373/share.v9i1.6882>. No1513, 10, 120.
- Nurhafiza Abdul Kader Malim, Sarini Azizan. (2020) "The Determinants of Islamic and Conventional Banking Profitability in Asian Countries". *Management & accounting review, volume 19 no. 3, december*.
- Pejman Abedifar, Philip Molyneux and Amine Tarazi. *Risk in Islamic Banking. Review of Finance* (2013) 17: pp. 2035–2096 doi:10.1093/rof/rfs041.
- Raj S. Dhankar. (2015) *University of Delhi, Delhi Islamic Banking and Financial Stability-- An Empirical Evidence from Gulf Region; XVI Annual Conference Proceedings January*.
- Soumadi, M.M., Smadi, A.A. (2023) "Islamic Banking Institutions and their Role in Economic Development of Jordan". [*International Journal of Professional Business* ISSN 2525-3654, ISSN-e 2525-3654](#).
- Saad A. Metawa, Mohammed Almossawi. 1998 "Banking behavior of Islamic bank customers: perspectives and implications" [*International Journal of Bank Marketing*](#).
- Serkan Eti, Hakan Kalkavan, Hasan Dinçer, [*Serhat Yüksel*](#) (2020) Predicting the Role of Islamic Banking on Sustainable Economic Development: An Analysis for Turkey With ARIMA Model. [*Handbook of Research on Creating Sustainable Value in the Global Economy*](#). 10.4018/978-1-7998-1196-1.ch009.
- Sutan Emir Hidayat, Muhammad Rizky Prima Sakti, Raqiya Ali AbdullahAl-Balushi. (2021) "Risk, efficiency and financial performance in the GCC banking industry: Islamic versus conventional banks" [*Journal of Islamic Accounting and Business Research*](#)
- Raj S. Dhankar. (2015). *University of Delhi, Delhi Islamic Banking and Financial Stability-- An Empirical Evidence from Gulf Region; XVI Annual Conference Proceedings January*.
- Tabash, M. I., & Dhankar, R. S. (2014). *Islamic banking and economic growth: An empirical evidence from Qatar*. *Journal of Applied Economics and Business*, 2(1), 51-67.
- [*Taner Sekmen*](#). (2021) *Islamic Banking and Economic Growth in the Dual Banking System*. *Optimum Ekonomi ve Yönetim Bilimleri Dergisi*, 8(1), 183.
- Tuan Azma Fatiema Tuan Ibrahim Hafiza Aishah Hashim, Akmalia Mohamad Ariff. (2020) *Ethical values and bank performance: evidence from financial institutions in Malaysia*. [*Journal of Islamic Accounting and Business Research*](#).
- Wan Hakimah Wan Ibrahim, Abdul Ghafar Ismail. (2020) "Do regulation, maqasid shariah and institutional parameter improve islamic bank efficiency"? *Journal of Islamic Monetary Economics and Finance, Vol. 6, No.1 (2020), pp.135-162 p-ISSN: 2460-6146, e-ISSN: 24606618*.
- Walid Mensi, Shawkat Hammoudeh, Aviral Kumar Tiwari, Khamis Hamed Al-Yahyaee (2020) *Impact of Islamic banking development and major macroeconomic variables on economic growth for Islamic countries: Evidence from panel smooth transition models*
- Shereen Mohamed, Tayyab Ahmed. (2022) [*Islamic Finance Development Indicator Report 2022*](#). 196 *Optimum Journal of Economics and Management Sciences*, 2021, 8(1), 183-196.